



TAQIQLANGAN EKINLARNI YETISHTIRISH JINOYATLARINI ANIQLASH VA FOSH ETISH

Meliqulov Alisher Furqat o`g`li

Annotatsiya: Bugungi kunda jamiyatimizda, shuningdek O`zbekiston Respublikasi taqiqlangan ekinlarni yetishtirishga qarshi kurash bo`yicha xalqaro hamjamiyat oldidagi o`z majburiyatlarini to`laqonli bajarishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur maqolada taqiqlangan ekinlarni yetishtirish va ularni aniqlash, uning salbiy oqibatlari va qarshi kurashish hamda qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog`liq jinoylatlarni oldini olish faoliyati va yurtimizda ishlab chiqilgan mustahkam huquqiy asoslar atroflicha yoritilgan.

Kalit so`zlar: taqiqlangan ekinlar, taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, giyohvandlik vositalari, xalqaro hamjamiyat, salbiy oqibatlar, iqtisodiy asoratlar, ma`naviy asoratlar, oz miqdor, ko`p miqdor.

So`nggi yillarda mamlakatimizda jamiyatning turli jabhalarida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Shular qatori, sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlarni va ular yuzasidan qilinayotgan ishlarni alohida e'tirof etish joiz. “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga doir ikkinchi ustuvor yo’nalish asosida qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda qonuniylikni qat’iy ta’minalash, “Qonun —ustuvor, jazo — muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish masalasiga alohida urg’u berilgan. Xususan, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida huquqiy davlat barpo etish va unda huquqni muhofaza qiluvchi organlarini mamlakatda huquq-tartibotni ta’minalashdagi rolini inobatga olib, “Hech kimning unutishga haqqi yo‘q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat”, deb ta’kidlaganlarini aytib o’tish joiz. Qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta’minalash har bir davlat organining asosiy vazifasi hisoblanadi. Zero, davlat o’z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko’zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Bu tamoyillar Konstitutsiyamizda aniq belgilab berilgan bo’lsada, ular amalda o’zining to’liq ijrosini topmoqda deya olmaymiz. Buning muhim sabablaridan biri tergovga qadar tekshiruv jarayonida fuqarolarning huquqlari va erkinliklari davlat organlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan cheklanishi, poymol qilinishining ehtimoli ko’pligi bilan bog’liq. Shuning uchun ham bugungi kunda huquqiy normalarni erkinlashtirish va yangilash tergov organlari faoliyatining tashkiliy shakllarini takomillashtirish bo`yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini har tomonlama chuqur o’rganib chiqish dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda.

Mamlakatimizda giyohvand moddalar savdosи va iste’moliga qarshi keskin choralar ko’rilayotgan bo’lsa-da, bugun giyohvandlik vositalarining noqonuniy



aylanishi eng xatarli va dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Giyohfurushlar yangi usul va nayranglarni qo‘llab, zahri qotilni sotish harakatlarini davom ettirishmoqda. Ular manfur maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida hali dunyoqarashi shakllanmagan, o‘zgalar ta’siriga tushib qolishga moyil yoshlari umriga zomin bo‘lishmoqda. O‘zbekistonda huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda bojxona organlari tomonidan ham transmilliy narkoguruahlarning qonunga zid faoliyatini aniqlash va chek qo‘yish, kontrabanda kanallarini yopish, giyohvand o‘simliklar maydonlarini yo‘q qilish va giyohvandlik illati yoyilishining oldini olish bo‘yicha maxsus kompleks operatsiyalar muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. O‘ylamay bosilgan qadam ko‘p hollarda afsus-nadomatga sabab bo‘ladi. Nega deganda, tavakkalchilik hamisha ham muvaffaqiyatga yetaklayvermaydi. Aholi orasida muntazam olib borilayotgan profilaktik targ‘ibot va tushuntirish ishlariga qaramasdan, hududlarda huquqbazarlik va jinoyatlar soni kamaymayapti. Afsuski, tavakkalchilikni xush ko‘radigan ayrim nopok kimsalar o‘z g‘araz maqsadlarini amalga oshirish uchun har qanday razillikdan tap tortmaydi. Giyohvandlik butun dunyoda keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Taqiqlangan ekinlarni yetishtirishning ijtimoiy xavfliligi shundaki, bu qilmish odamlarning sog`ligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi, respublikadagi kriminogen vaziyatga, jamiyatning iqtisodiy va madaniy negiziga salbiy ta’sir ko`rsatib, ko‘p hollarda uyushgan jinoyatchilik bilan uzviy bog`liq bo`ladi. Bundan tashqari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan tarkib topgan taqiqlangan ekinlarni yetishtirish narkomafiyaning harakatini giyohvand moddalar xom ashyolari bilan ta’minlab, aholi muayyan qismining xaridorlar bilan hamkorligini rag`batlantiradi hamda giyoxvandlik tarqalishini qo`llab-quvvatlaydi. Ushbu jinoyatning obyekti aholining xavfsizligi va sog`ligi hisoblanadi. JKning 270-moddasida keltirilgan jinoyat predmeti kuknor yoki moyli kuknor, kannabis o‘simligi yoxud tarkibida giyoxvandlik vositalari va psixotrop moddalar bo`lgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki yetishtirish hisoblandi. Kannabis — nashaning gashish olinadigan navi (jumladan, nashaning Hindiston, Janubiy Chuy, Krasnodar va boshka turlari)ga mansub ekin. Tarkibida giyohvand yoki psixotrop moddalar bo`lgan boshqa o‘simliklarga koka bo`tasi (undan kokain olinadi) va tarkibida giyohvand yoki psixotrop moddalari bo`lgan boshqa ekinlarni kiritish mumkin. Bu ekinlar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar konsentratsiyasi ko`pligi bilan farqlanib, shu sababli ekinlar yoki ularning qismlari Narkotik moddalarni nazorat qilish davlat komissiyasi belgilagan holda giyohvand vosita, deb topiladi. Bu ekinlarni yetishtirish faqat farmatsevtika sanoatida yoxud ilmiy maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin. Har bir holatda ekinlarning tarkibida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari bo`lgan ekinlarga tegishliliginini aniqlashda, sudlar bu toifadagi ishlarni ko`rishda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro`yxatiga amal qilishi zarur hollarda Narkotik moddalarni nazorat kilish davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan uslublarga muvofiq, olingan ekspert xulosasiga asoslanishi kerak. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishni nazarda tutgan jinoyatlar to`g`risidagi ishlar



bo`yicha sud-kimyoviy ekspertizalarni o`tkazish aybdorlikni isbotlovchi muhim mezonlardan biri xisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasiga muvofiq, vosita yoki moddani narkotik yoxud psixotrop, deb e'tirof etish uchun bunday ekspertizalar qayd etilgan turkumdagи barcha ishlar bo`yicha o`tkazilishi zarur.

Bu turdagи ekspertizalarni hal etishi uchun quyidagi savollar qo`yilishi mumkin: olingan modda narkotik hisoblanadimi va qaysi turga kiradi, zarur hollarda esa uning ushbu moddadagi tarkibi necha foizni tashkil qiladi va vazni qancha; narsada (qanday narsa ekanligi ko`rsatiladi) giyohvandlik vositalarining izlari (mikroskop orqali ko`rinadigan nishonalari) bormi; yer maydonida (olingan joy ko`rsatiladi) o`savotgan o`simliklar qaysi turga mansub va u tarkibida narkotik bo`lgan o`simlik hisoblanadimi; olingan moddalar bir butunni (bir massani) tashkil etganmi; olingan moddalar tayyorlash usuli (texnologiyasi), saklash sharoiti, foydalilanigan boshlang`ich xom ashyosi, o`simlik xom ashyosining ko`karib turgan joyi bo`yicha kelib chiqishi jihatidan umumiy manbaga egami».

Mazkur jinoyat obyektiv tomondan taqiqlangan ekinlarni ekish, yetishtirishda ifodalanadi. **Ekish** — tarkibida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bo`lgan kuknor, moyli kuknor, kannabis o`simlik moyini qonunga xilof ravishda sepish va o`stirish. «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to`g`risida»gi Qonunga ko`ra, tarkibida giyohvandlik vositalari bo`lgan o`simliklarni yetishtirish davlat monopoliyasiga kirib (7-modda), maxsus vakolatli organ belgilagan tartibda bu faoliyat ilmiy maqsadlarda shug`ullanishga litsenziya bo`lgan taqdirda davlat korxonalariga ruxsat etiladi (21-modda). Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish deganda, tegishli ruxsatsiz har qanday yer maydonida, shuningdek, bo`sh yotgan yerdarda urug`ni qadash va o`stirish tushuniladi. Jinoyat o`simlik o`nib chiqqan-chiqmaganligi yoki o`sgan-o`smaganligidan qat`iy nazar, ekin ekilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Urug`lar sotib olish, ularni pishish bosqichigacha o`smaydigan darajada tuproqdan tashqarida yoki kam miqdordagi tuproqda undirish (kuchat yetishtirish)ni taqiqlangan ekinlarni yetishtirishga tayyorgarlik ko`rish harakatlari sifatida ko`rish mumkin. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish deganda, ekilgan vaqtidan boshlab pishish bosqichigacha bo`lgan davr ichida ularni parvarish qilish (sug`orish, chopiq qilish, o`g`itlash va hokazolar)ni tushunish kerak. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirishi, ularni yetishtirish texnologiyasining o`sishi, yangi navlarini yaratish, ular hosildorligini oshirish, noqulay ob-havo sharoitlariga chidamlilagini oshirish kabilarni e`tiborga olib, kvalifikatsiya qilish kerak.

Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, ularni o`zi yoki boshqa shaxslar uchun yetishtirganligi, pishib yetilganligidan, hosil yig`ib olish vaqtidan qat`iy nazar, tugallangan jinoyat deb topiladi. Aybdorning harakatlari ekin maydoni o`lchamidan kelib chiqqan holda JKning 270-moddasi tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinadi, bunda ushbu moddaning 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun ekin maydonining o`lchami 250 kvadrat metrgacha bo`lishi ko`zda tutiladi. Agar yetishtirilishi taqiqlangan o`simliklarni ekish va yetishtirish kelgusida narkotik moddalarni o`tkazish maqsadini ko`zlab tayyorlash, saqlash, tashish, jo`natish, shuningdek, o`tkazish yoki sotish bilan



bog`liq bo`lsa, bunday harakatlar JKning 270-moddasi va tegishli moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish yoki ekish bunday o`simliklarni yetishtirish maxsus ruxsat (litsenziya) bilan amalga oshirilgan taqdirda jinoiy javobgarlikni istisno etiladi. Tarkibida giyohvandlik moddasi bo`lgan o`simliklar o`stirish bilan bog`liq faoliyatni litsenziyalash O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda litsenziyat zimmasiga faoliyatni qat`iy tartibda litsenziya talablari va shartlariga rioya qilgan holda amalga oshirish majburiyati yuklanadi. Agar amalga oshiriladigan faoliyat litsenziya doirasidan chetga chiqsa, javobgar shaxs zarur shartlar mavjud bo`lganida, sharxlanayotgan modda bo`yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Jinoyat subyektiv tomonidan qayerdan sodir etiladi. Aybdor giyohvandlik moddalarini bo`lgan ekin yoki psixotrop o`simliklarini qonunga xilof ravishda yetishtirayotganligini biladi va mazkur harakatni hohlaydi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun taqiqlangan ekinlarni yetishtirishning motivi va maqsadi ahamiyatga ega emas. Qonun jinoyat tarkibiga giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo`lgan o`simliklarni yetishtirishdan maqsad shaxsiy iste'mol yoki sotish belgisini kiritmaydi. Mazkur ekinlarning ularni o`tkazish uchun emas, balki xo`jalik manfaatlarida (to`la, urug` olish va boshqa) foydalanish uchun ekilgani yoki yetishtirilgani qilmishning ijtimoiy xavflilagini yo`qotmaydi (boshqa shaxslar bundan giyohvandlik vositalari olishda foydalanishi mumkin). Shuning uchun bunday holatlarda qilmish JKning 270-moddasi bo`yicha kvalifikatsiya qilinadi. Taqiqlangan o`simliklarni ekish va yetishtirish kelgusida narkotik moddalarni o`tkazish maqsadini ko`zlab tayyorlash, saqlash, tashish, jo`natish, shuningdek, o`tkazish yoki sotish bilan bog`liq, bo`lsa, bunday harakatlar JKning 270-moddasi va JKning 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Mazkur qilmishni sodir etish chog`ida o`n olti yoshga to`lgan har qanday jismoniy shaxslar jinoyat subyekti bo`lishlari mumkin. JKning 270-moddasi, 2-qismida: a) ilgari giyoxvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan; b) bir gurux shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib; v) o`rtacha kattalikdagi ekin maydonida sodir etilgan jinoyatning kvalifikatsiya qilingan turlari uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirgan shaxs ilgari JKning 127-moddasi, 2-qismida yoki 3-qismi “a”, “b”, “v” bandlarida, 270—276-moddalarda belgilangan jinoyatlardan birini sodir etgan bo`lsa, sudlanganlik fakti, ilgari sodir etilgan jinoyat muddatining o`tish vaqtiga tugamaganligi, qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik bekor qilinmagan va olib tashlanmaganligidan qat`iy nazar, moddaning 2-qismi, “a” bandi bo`yicha kvalifikatsiya qilish kerak. O`rtacha hajmdagi maydonda taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, ekish deganda, 250 m².dan 1000 m².gacha maydonda mazkur ekinlar urug`ini qadash yoki ularni o`stirish tushuniladi. Bunda yer maydoni hajmi faktik foydalanilgan maydondan kelib chiqib aniqlanishi kerak, ya`ni yetishtirilishi taqiqlangan ekinlar urug`i o`savotgan maydonning o`zi tushuniladi. Ekinlar yetishtirilayotgan yer maydoniga giyohvand o`simliklar yoki ular urug`lari mavjud bo`lmagan maydonlarni qo`shish mumkin emas, bu — qonunga zid. Shuning uchun



yetishtirilayotgan yer maydonini aniqlashda, ekin amalda ekilgan umumiyl maydonni hisobga olish kerak. Agar ayblanuvchi taqiqlangan ekinlarni turli maydonlarda yetishtirgan bo`lsa, tergov va sud organlari tarkibida narkotik modda bo`lgan o`simliklarni yetishtirish maqsadini aniqlashi kerak. Agar ayblanuvchi kamida ikki marta shu o`simliklarni turli vaqt, turli maydonlarda ekkan yoki yetishtirgan bo`lib, yana jinoyat sodir etishga qasd qilgan bo`lsa, uning qilmishi JKning 270-moddasi, 2-qismi, "a" bandi bilan yoki shu moddaning tegishli bandi va qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ekish maydoni hajmini aniqlashda, nafaqat oxirgi ekin maydoni hajmi, balki bundan oldingi maydon hajmlarini e'tiborga olish kerak. Jinoyat subyekti bir vaqtda ikki yoki undan ortiq maydonlarda taqiqlangan ekinlarni ekib, bular uchun umumiyl qasdga ega bo`lsa, uning qilmishi JKning 270-moddasi, 2-qismi bilan qo`shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi, chunki u yagona davomiy jinoyatni tashkil etadi va uning qilmishini ekin maydoni o`lchamidan kelib chiqib kvalifikatsiya qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kidirbaevich, Yangibaev Aybek. "Administrative liability for non-fulfillment of obligations to educate teenagers" Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.10 (2021): 179-182.
2. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. T.: "Kamalak".2017. 128 b
3. Xolmatova M., Muravyev N. Yoshlar oilaviy hayot bo'sag'asida.-T.: O'zbekiston, 2000
4. Социальные причины девиантного поведения девочек-подростков в условиях трансформации российского общества тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук Мухамадеева, Зинфира Фанисовна
5. Sulaymonov J.B., Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599
6. www. pedagog. Uz13. Yangibayev A., Maxmudov I. ichki ishlar organlarining yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi roli //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – S. 119-122.